

---

## FAROBIYNING MUSIQA AMALYOTIGA QO'SHGAN BUYUK HISSALARI

**Maftuna Sayfiddinova**

Musiqa madaniyati fakulteti

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Buyuk faylasuf va mutafakkir g'arbda Alfraganus, Sharqda "ikkinchi muallim" va "Sharq Arastusi" nomi bilan mashhur bo'lgan, to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' ibn Tarxon Al-Farobiy al-Turkiydir. Ham Sharq ham G'arbda bunday buyuk nomlar bilan ulug'lanishiga sabab, Abu Nasr Farobiy yetuk aql zakovat sohibi, chuqur ilmiy izlanishlar o'tkazgan, Har bitta o'rgangan sohasining yetuk mutaxasisi hisoblangan. Uning shaxs kamolotini yuksaltirishga doir ta'lim tarbiya to'g'risidagi bizgacha yetib kelgan ko'pgina adabiyoti asos sifatida qo'llaniladi. Farobiy merosi tugammas bitmas xazinaga o'xshaydi. Farobiy nomini abadiylashtirishga doir nafaqat O'zbekistonda balki butun o'rta osiyo hududida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda, xususan bizda ko'chalar, hiyobonlarga, bekatlarga Farobiy nomi berilishi, Farobiy nomidagi maktab va o'quv markazlarining tashkil qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Farobiy asarlari ichida musiqaga doir eng ko'zga tashlanadigan asari "Kitob Al-Musiqa" bo'lib, hozirgi maqolaning asosiy maqsadi ham bu asar haqida qisqacha so'z yuritishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Farobiy, musiqa, tillar bilimdoni, ilmlar klassifikatsiyasi, notalar, ritm, yurak, ruhiyat, ta'sirchanlik, kitoblar, zamonlar, falsafa

Farobiy o'z davridayoq misli ko'rilmagan yutuqlarga erishgan buyuk allomadir. Uning ismidagi Farobiy so'zi uning qishlog'ining nomidan olingan ya'ni Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan joy nomidan kelib chiqqan. Farobiy mana shu Farob qishlog'ida 873-yilda tug'ilgan. Farobiy 70 xil tilni mukammal egallagan.

U ko'pgina sohalar bilan jiddiy shug'ullangan xususan tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika, matematika, mantiq shular jumlasidandir. Manbalarda ko'rtirilishicha u zabardast bastakor hamda ud, tanbur, g'ijjak, nay, chang va qonun asboblarning mohir ijrochisi hisoblangan. Farobiy musiqa o'ld ko'p asarlar yozgan. Manbalarda uning "Ilmlar klassifikatsiyasi", "Ixo al-ulum" "Katta musiqa kitobi", (Kitob al-musiqa al-kabr) "Musiqaga kirish" (Mad-hal fil -musiqa) "Ritmlar klassifikatsiyasi kitobi" (Kitob ixsa al iko) va boshqa ko'plab asarlari tilga olinadi. Bu asarlarning ayrimlari qo'lyozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Farobiy asarlarining o'ziga xosligi undagi inson ruhiyatiga bog'liqligi va juda katta ta'sirga ega, ruhiy olamni tartibga soluvchi kuch sifatida foydalangan meningcha. Musiqada yuragimiz ritmi bor va bu ritm eshitayotgan musiqamizning kayfiyatimiz umuman ish faoliyatida uchraydigan ko'pgina vaziyatlarda bizning qanday yo'l tutishimizga ozmi ko'pmi sababchi bo'ladi. Bu bizning hozirgi zamon haqiqatlarimizdan bittasi bo'lib, Farobiy bu narsani o'sha davr vaqtidayoq o'z ilmiy qo'lyozma asarlarida aks etdirgan. Atniqsa "Katta musiqa kitobi" asarida keltirilgan fikrlari buning yaqqol isbotidir. Uning "Katta musiqa kitobi" jami 12 bobdan iborat. Farobiy bu asarida musiqa va boshqa sohalar xususida shunday fikr yuritgan:

1. Uning asoslarini egallash.
2. Shu fan asoslaridan kerakli natijalar chiqara bilish.
3. Shu fanga oid xato natijalarni topa olish, o'zga olimlar fikrlarini chuqur tushuna olish, ularning yomon fikrlaridan yaxshilik kashf eta bilish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzata olish.

Farobiyning ta'kidlashicha "uning asoslarini egallash" ya'ni har bitta egallashga urinayotgan soha yuzasidan bilim va salohiyatni oshirish ya'ni har bitta sohaning asosini u nimalardan tarkib topgan, qaysi sohalar bilan bog'liq va asosini nimalar tashkil qilishini chuqur tahlil qilish. "Shu fan asoslaridan foydalanib kerakli natijalar chiqara olish" har bir sohani o'rgangandan so'ng, u bilan muntazam shug'ullangandan keyin shu fan yuzasidan yangilik yarata olish muhim vazifalardan

biri hisoblanadi. “Shu fanga oid xato natijalarini topa olish, o’zga olimlar fikrlarini chuqur tushuna olish, ularning yomon fikrlaridan yaxshilik kashf eta olish, yo’l qo’yilgan xatolarni tuzata olish”. Biz bir sohani egallar ekanmiz bu sohadagi kamchiliklarni ko’rib tahlil qilish, ularni tuzatishga urinish, nayinki soha bo’lsin balki o’zimiz yo’l qo’yayotgan xatolarni ham tahlil qilishimiz eng birlamchi vazifalardan biridir. Bu soha mutaxassislariga qiziqish, ular hayotini o’rganish, tahlil qilish, ular yo’l qo’ygan xato va kamchiliklarga e’tibor bilan nazar solish, bu xatolarni takrorlamaslikka odatlanish har bitta soha izlanuvchisini yuksaklarga yetkizadi.

Xulosa qilib aytganda qaysi soha bòlishidan qat’iy nazar uni sinchiklab o’rganish va bu soha yuzasidan chuqur bilimga ega bo’lish zarur. Chunki har bir soha bu bir ummon hisoblanadi. Bu ummonda yashash uchun esa mukammal darajada suzishni bilish talab etiladi. Suzishni bilmagan inson albatta cho’kishi mumkin. Uni qutqaradigan narsa bu bilim, ko’nikma va malakadir. Uni qay yo’sinda egallash va qo’llay olish insonning o’ziga bog’liq.

### **Adabiyotlar ro’yxati**

1. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shaxri” Abdulla Qodiriy nashriyoti 1993 yil
2. История узбекской музыки. 1-3 тт. Т., 1972, 1973, 1990.
3. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
4. История узбекской музыки. М., 1979.
5. Jabborov A. Musiqali drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. Т., 2000.
6. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi, 1-qism. To‘plam. Т., 1994.
7. Yunusov R.Yu. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. To‘plam. Т., 2000.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Т, 2017